

## **TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI VA ULARNING AFZALLIKLARI**

**Ismatova Shaxnoza Ruzimurod qizi**

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali

Bank ishi va audit yo‘nalishi talabasi

[Ismatovashahnoza2004@gmail.com](mailto:Ismatovashahnoza2004@gmail.com)

**Maxmudov Sirojiddin Abdullayevich**

Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiy kafedrasи o‘qituvchisi

### ***ANNOTATSIYA***

*Ushbu tezisda “Raqamli bank” tushunchasiga ta’rif berib, raqamli bank xizmatlarining ayni damdagi holati va bankning faoliyati tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan an’anaviy banklar va raqamli banklarning faoliyatini taqqoslash natijasida mamlakatimizdagi bank xizmatlarini rivojlantirish borasida xulosalar shakllantirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** Raqamli banking, raqamli bank, depozit multiplikatsiyasi, kredit ekspantsiyasi, raqamli innovatsiyalar, mobil ilova, an’anaviy bank, aloqa markazlari, online kredit, online omonat,

### **KIRISH**

Butun insoniyat hayotida bank tizimi va banklarning roli muttasil ortib bormoqda. Ular mamlakat iqtisodiyotining asosini tashkil etadi va ishlab chiqarish birlashmalari faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Bank tizimi savdo, sanoat, qishloq xo‘jaligi va aholini bog‘laydi, ular o‘rtasida vositachi bo‘ladi. Banklar

faoliyati va rivojlanishi moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, muomalasi va iste'moli bilan uzviy bog'liq.

Zamonaviy bank tizimi o'z mijozlariga bank faoliyatining asosini tashkil etuvchi an'anaviy depozit, ssuda va kassa hisob-kitob operatsiyalaridan tortib, bank tuzilmalari tomonidan qo'llaniladigan pul va moliyaviy vositalarning turli shakllari - lizing, faktoring, trast kabi xizmatlarning barcha turlarini taqdim etadi.

1991-yilning 1 sentyabrida Respublikamiz mustaqilligining e'lon qilinishi butun dunyo mamlakatlari tomonidan tan olingan bozor iqtisodiyoti dastaklarini bizning respublikamizga ham kirib kelishiga zamin yaratdi. Shuning uchun ham respublikamizdagi bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimini yaratish zaruriyati tug'ildi.

Zamonaviy bank tizimida naqd pulsiz aylanishlarning rivojlanishi natijasida dastlabki shakllantirilgan depozitlarni cheklanmagan tarzda bir bankdan ikkinchi bankka o'tkazish, shu bilan birga, tijorat banklari tononidan berilayotgan kreditlarni cheksiz oshirish imkoniyati mavjud. Xorijiy nazariyada bu jarayon depozit multiplikatsiyasi va kredit ekspantsiyasi deb nom olgan.

Hozirgi kunda jahon bank-moliya tizimining jadal rivojlanib borishi natijasida banklar faoliyatida yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga yanada ko'proq ehtiyoj sezilmoqda. Shunday ekan, tijorat banklarining zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan barcha xizmatlarining tezkorligi, sifati va ishonchligini oshirish bugungi kun talabidir. Chunki zamonaviy bank xizmatlari mijoz uchun bank muassasasiga bormoy, masofadan turib, barcha zarur bank xizmatlarini amalga oshirish imkoninni yaratadi.

Raqamli bank — innovations bank texnologiyalaridan foydalangan holda biz uchun odatiy bo'lgan barcha xizmatlarni onlayn rejimda amalga oshirishga imkon yaratadigan va bankka tashrif buyurishni talab qilmaydigan to'laqonli bank yoki uning tarkibiy bo'linmasi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bank tizimida raqamli bankingni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy masalalaridan biri. Prezidentimiz bank tizimiga to'xtalar ekan, "Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalardan foydalanish, yangi bank mahsulotlari va dasturiy ta'minotni joriy etish bo'yicha zamонавиy talablardan ortda qolmoqda", deya ta'kidlagan. Bunda biz raqamli bank xizmatlarini ishlab chiqilishi zarur bo'lgan masala sifatida tan olishimiz lozim. Muhim masalalardan biri bu foydalanuvchilarning bank tizimiga ishonchini oshiradigan va qulay xizmatlarni taklif etadiga raqamli bank tizimini rivojlantirish hisoblanadi. A.A.Gontarning ta'kidlashicha, "Raqamli banking - bu bank va uning mijozlari o'rtaSIDagi o'zaro munosabatlarning yangi shakli, shu jumladan raqamli, axborot va texnologiya strategiyalari sohasidagi iste'molchilar va tijorat mijozlari uchun moliyaviy xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar".

Bank mijozlari banklarning mobil ilovalari yordamida istalgan joyda va istalgan vaqtida bank operatsiyalarini darhol amalga oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, mobil banking ilovasi qo'shimcha filiallarni ko'paytirish xarajatlarini kamaytiradi. Rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, elektron banking operatsion xarajatlarni kamaytiradi va banklar uchun katta foya keltiradi. Raqamli banking daromad olish uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi, chunki ular qo'shimcha foizsiz manbalardan daromad keltiradi. Qulay bo'lgan elektron bank xizmatlari va mahsulotlarining joriy etilishi banklarga bo'lajak mijozlarni jalb qilish va bu ularning bozordagi ulushini oshirish imkonini beradi.

## NATIJALAR

"Raqamli bank" tushunchasi 2015-2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o'z mijozlariga yanada qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamонавиy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi.

Afsus bilan qayd etish lozimki, jahon iqtisodiy forumi ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimiz bu ko'rsatkich bo'yicha oxirgi o'rnlardan birida turadi. Hozirda

zamonaviy bank tizimida barqaror va katta daromad keltiruvchi ba'zi xizmatlar o'zimizda qo'llanilmaydi. Bu esa bank faoliyatini amalga oshirishda hali foydalanilmayotgan rezervlar borligidan dalolat beradi.

«Raqamli bank» atamasi O'zbekiston normativ bazasida ilk bor prezidentning 2018-yilning yanvar oyidagi «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida paydo bo'ldi. Shunga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatimizda bir qator banklar raqamli bank sifatida ro'yxatga olingan.

## MUHOKAMA

Bugungi kunda raqamli banklar o'z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to'liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijoji 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya'ni, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta'mirlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.

Raqamli banklarning bir qator afzalliklarini ko'rib chiqamiz:

- bank filiallari tarmog'ining kengaytirilmasligi;
- bank-mijoz o'rtaida onlayn aloqa tizimining 100 foiz o'rnatilganligi;
- bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar uchun eng qulay sharoitlar (ya'ni, mijoz talabidan kelib chiquvchi) va tez fursatlarda xizmat ko'rsatish;
- mijoz vaqtin, telefon aloqa xizmati uchun mijoz tomonidan to'lanadigan summa hisobga olinmaydi tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi;
- ortiqcha hujjalarning talab etimasligi;
- Dastur tomonidan xizmat ko'rsatilishi va inson omilining hissasi nisbatan kamayishi;
- xizmatlar tannarxining arzon bo'lishi (yirik bino va ofislarga zaruriyatning yo'qligi);

- Aqlli o‘tkazma;
- Kartalarni buyurtma qilish va yetkazib berish;
- Valyuta ayirboshlash operatsiyalari;
- Xizmatlar bo‘yicha to‘lovlar;
- Kreditlarni rasmiylashtirish;
- Omonatlarni ochish va boshqarish;
- Kartalarni bloklash;
- Hisob-raqamlar va kartalar o‘rtasida o‘tkazmalar;
- Kartalar va hisob-raqamlar bo‘yicha ma’lumotnomalar va ko‘chirmalar;
- Avtoto‘lovlar.

Ko‘rinib turibdiki, raqamli banklar asosan mijozlarning qulayligiga xizmat ko‘rsatadi. U o‘zida bir qator elementlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, sezgirlik va yordam berish istagi, yondashuvning soddaligi, odamlarga hayotda va biznesda bir qadam oldinda bo‘lish imkoniyatini berish, har qanday mijozga individual yondashuvni saqlab qolish va ma’lumotlarni qayta ishlashda xavfsizlikni ta’minalash bilan har qanday so‘rovni iloji boricha tezroq bajarishga yo‘nalganlik.

## XULOSA

Moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bank mijozlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, moliyaviy faollikni oshirish uchun muhim bosqich sanalish bilan birga, mijozlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Ya’ni, raqamli banklarning istiqbollaridan biri, bu moliyaviy tarmoqlarni raqamlashtirish evaziga xizmatlar tannarxi 40-60 foizgacha pasaytirilishiga erishiladi. Mijozlar bankka tashrifi, hujatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt hamda mablag‘larini tejashiga imkon yaratadi.

Bir so‘z bilan aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o‘zgarishi bu - yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi va butun dunyo bo‘ylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, raqamli moliyaviy xizmatlarni

rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi raqamlar shundan darak beradiki, bank jadal rivojlanish va mijozga yo‘naltirilganlik tamoyili asosida taklif etayotgan sifatli xizmatlari mijozlar tomonidan keng qabul qilinmoqda va bank mijozlari soni kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa mamlakatimiz bank-moliya tizimida yangi raqamli bank tendensiyasi boshlanganligidan darak beradi. Shu sababli hozirda an’anaviy faoliyat yuritayotgan banklar ham raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratishlari zamon talabiga aylanib bormoqda.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Khudoykulov, H. A., & Sherov, A. B. (2021). DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN CORPORATE GOVERNANCE OF JOINT STOCK COMPANY. Экономика и бизнес: теория и практика, (3-2), 217-219.
2. Маткулиева, С., & Атабаева, К. (2022). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В РАЗВИТИИ ОТРАСЛЕЙ И ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ. Scientific progress, 3(2), 360-363.
3. Шеров, А. (2017). Олий таълим муассасаларига бюджетдан ташкари маблагларни жалб этишни такомиллаштириш. "Biznes-Эксжрт", (3 (111)), 3.
4. Gontar A.A. Digital banking as one of the components of the economic security of a credit organization// Bulletin of the Volzhskiy University im. VN Tatishcheva. - 2017. - T.1. - no. 4
5. А. Б. Шеров, & Ш. Б. Юсупов (2021). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕНЕЖНО-КРЕДИТНОЙ ПОЛИТИКИ В СТРАНЕ. Scientific progress, 2 (1), 605-609.
6. Ibodov, A., & Sherov, A. (2015). Analysis of bank risks in Uzbekistan. Scientific enquiry in the contemporary world: theoretical basics and innovative approach [L 26], 1, 60-63.

7. Suchat Tungjitnob, Kitsuchart Pasupa, Boontawee Suntisrivaraporn "Identifying SME customers from click feedback on mobile banking apps: Supervised and semi-supervised approaches". Volume 7, Issue 8, August 2021, e07761
8. А. Б. Шеров, & Х. М. Раджабов (2021). КОММЕРЧЕСКИЕ БАНКИ КАК СУБЪЕКТ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ. Scientific progress, 2 (1), 889-893.
9. Thabani Nyoni va boshqalar "The impact of digital banking on the performance of commercial banks in Zimbabwe". IJARIIE-ISSN(O)-2395-4396 Vol-6 Issue-6 2020
10. Bakberganovich, S. A. (2021). Ways to Increase the Efficiency of Financing Higher Education Institutions. Journal of Marketing and Emerging Economics, 1(7), 49-56.
11. А. Б. Шеров, & Х. А. Худайкулов (2021). ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КОММЕРЧЕСКОГО БАНКА НА МИРОВЫХ ФИНАНСОВЫХ РЫНКАХ. Scientific progress, 2 (1), 1261-1265.
12. Taylor Nicole Rogers, "Bank of America finally sees mobile deposits surpass inperson transactions," The Street, July 16, 2018